

TIBBIY EKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Yoldasheva Xurshida

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Turayeva Dildora Shuhratovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Tibbiy ekologiya tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati, shuningdek, tibbiy ekologiya va uning ekologiyani muhofaza qilishdagi o'rni yoritilgan. Tibbiy ekologiyaning rivojlanish tarixiga nazar solsak, uning bir nechta bosqichda taraqqiy etganligini ajratish mumkin bo'ladi. Atrof muhitdagi o'zgarishlardan olingan natijalarning to'planib borishi bilan ularning inson organizmiga, salomatlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri kundan-kunga yaqqolroq namoyon bo'laboshladi. Bu holat ko'p jihatdan biosferaning kimyoviy ifloslanishiga taalluqlidir.

Kalit so'zlar: tibbiy ekologiya, atrof – muhit, iqtisodiy determinizm, ekologik vaziyat, iqlim, salomatlik

Insoniyat tarixining muayyan bosqichlarida, jamiyat taraqqiyoti darajalarini belgilovchi mezonlar tizimida, aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi mexanik va intellektual-ijtimoiy mobilligi motivini iqtisodiy determinizm nuqtai nazaridan baholash ustuvor edi. Lekin, bugungi postindustrial va axborotlashgan jamiyatda insonlarning iqtisodiy yashash sharoitlari yaxshilanishi, transport infrastruktura-si, kommunikatsiyasi rivojlanishi bilan ma'naviy ehtiyojlarini qondirish zaruriyati ham, imkoniyatlari ham, kengaymoqda. Ya'ni insonlar hayotida umuminsoniy ma'naviy-madaniy qadriyatlar tarixiga, bokira tabiat go'zalligini bilishga qiziqishlarini – gedonistik va evdomonistik ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishda ekologik turizmning estetik mohiyati va mazmuni alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lishlikning butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi. So'nggi o'n, o'n besh yil ichida dunyo miqyosida ekologik vaziyat yanada og'irlashdi. Masalan, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy munosabat buzilishi natijasida daryolar tarmoqlarining qurishiga, bu holat esa namsevarlik o'simliklar olamini halokatga, hayvonot dunyosining kamayishiga, iqlim sharoitlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosini yechish zarurati tug'ildi. Shuning uchun ham ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo'lib qoldi.

Tibbiy xodim inson salomatligi holatini to'g'ri baholay olishi, uning hayotini saqlab qolish va mustahkamlash bo'yicha malakali tavsiyalar berishi kerak. Shuning uchun tibbiy profilaktik ehtiyojlar uchun mutaxassislar tayyorlashga jiddiy o'zgarishlar kiritish zarur. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining barcha soha yo'nalishlari tibbiy profilaktik bilimlarga ega bo'lmasdan turib bemorni davolay olmaydi, shunday ekan gigiyena fani tibbiyot fanining asosi hisoblanadi.

Tibbiyotga doir ekologiya ko'pincha odam organizmi uchun zarur bo'lgan atrof muhitning tabiiy holatini va ifloslanib borishini tekshiradi. Albatta bu noto'g'ri, chunki "ekologiya" so'zining o'zi butun borliqdagi jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi ta'limotdir. Odam esa - shu jonli tabiatning bir qismi, shuning uchun inson ekologiyasi va shu jumladan tibbiy ekologiya atrof muhitda bor bo'lgan barcha omillarni hisobga olishi kerak, chunki har qanday holda ham ana shu omillar oxir oqibatda odam organizmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tibbiy ekologiya rivojlanish tarixiga nazar solsak, uning bir nechta bosqichda taraqqiy etganligini ajratish mumkin bo'ladi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari ITTning boshlang'ich davri bo'lib, davlatlarda iqtisodiy taraqqiyotning keskin ko'tarilishi, fandagi eng yangi yutuqlarning tezlikda o'zlashtirib olinishi fonida ITT - ning inson organizmiga negativ ta'siri - nonsens - ya'ni g'ayritabiiy-dek tuyulgan edi. Atrof muhitdagi o'zgarishlardan olingan natijalarning to'planib borishi bilan ularning inson organizmiga, salomatlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri kundan-kunga yaqqolroq namoyon bo'laboshladi. Bu holat ko'p jihatdan biosferaning kimyoviy ifloslanishiga taalluqlidir.

Yangi yuz yillikning boshlanishi va insoniyatning yangi ming yilligi atrof muhitning sezilarli o'zgarishlarga uchrashi davri bo'lib ta'riflanadi. Xususan biosferaning kimyoviy, fizikaviy, biologik ifloslanishi faqatgina ishlab chiqarishning intensivlashtirish, transport vositalarining rivojlanishi, aviatsiyaning takomillashishi, qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashtirilishigina emas, balki turli ko'rinishdagi avariya hodisalarning ortishi, halokat va fojialar, hamda ijtimoiy zarbalarning ta'siri ham jiddiy tarzda kuchayadi. Bunday o'zgarishlarning darajasi bizga inson organizmi uchun xavfli bo'lgan bir qator ta'riflarni alohida ajratishga imkon beradi. Ekologiya bilan bog'liq bo'lgan muammolar kompleks hisoblanadi va uning tutgan rolini baholash uchun, atrof muhitning hozirgi holatini va uning insoniyatning hayoti va faoliyatiga ta'sirini aniq tafakkurlash uchun biosferaga antropogen tasirotlarining hamma tomonlarini aniq o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. To'xtayev A., Ekologiya, Toshkent, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2.01.2024-yildagi PQ-38-sonli "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.

3. Dildora Shuhratovna Turayeva. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqot san'atining ahamiyati."SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. January 2023, Volume 4, Issue 1. P-836-838

4. Turayeva Dildora Shuhratovna. The Place of Communication in Personal Life. Eurasian Scientific Herald. 2022-04-13. Volume 7. P-54-57

5. Aminjon Qudratovich Aymatov . THE LAW OF INCREASING THE ROLE OF SUBJECTIVE FACTORS IN THE FORMATION OF AESTHETIC ATTITUDE TO NATURE . Academia Globe: Inderscience Research. Volume 2, Issue 5, May, 2021. P-548-553

6. Aminjon Qudratovich Aymatov. SOME ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AND AESTHETIC PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 2017, Issue 04, Volume 48. P-79-82

7. Aminjon Qudratovich Aymatov. Turayeva Dildora Shuhratovna. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences. Vol 10/No 12/Dec 2021. P-5-9